

O'zbekiston va Ozarbayjon tomonidan Oliy davlatlararo kengash tuzildi



Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida Oliy davlatlararo kengash tashkil etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Bundan tashqari, tashrif doirasida davlatlar, hukumatlar va idoralar darajasida 15 ta hujjat qabul qilindi.

2023-2024 yillarda har tomonlama strategik sheriklikni chuqurlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi", energetika sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida, yoshlarga oid siyosat va sport sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, Media sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" shular jumlasidan.

Bundan tashqari, Fuqarolarning vizasiz qatnovlari to'g'risidagi bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, "Ye-permit" ruxsatnoma blanklarini elektron almashish axborot tizimini joriy qilish, oila va bolalarni muhofaza qilish, oziq-ovqat xavfsizligi borasida hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvlarga erishildi hamda Xavfsizlik kengashlari kotibiyatlari o'rtasidagi, kiberxavfsizlik sohasidagi hamkorlik to'g'risida memorandumlar imzolandi.

Ushbu hujjatlar O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarning bir qator istiqbolli yo'nalishlarida amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.



Manba